

MAMLAKATIMIZ IQTISODIY VA IJTIMOIIY TARAQQIY ETISHIDA TADBIRKORLIKNI ROLI VA O`RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8254206>

Toshaliyeva Saodat Toxirovna

Termiz davlat universiteti

biznes boshqaruvi va statistika Kafedrasi mudiri

(I,f,f,d) (Phd)

Abdulla Avazov Turg'unovich

Termiz davlat universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – tadbirkorlik sub'yektlarini, ayniqsa, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davrida ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, Xususiy tadbirkorlik ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tuzilishi va sifatini belgilovchi yetakchi tarmoqlardan biri ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

iqtisodiy o'sish, faoliyat, yo'nalish, tadbirkorlik, rivojlantirish, biznes, takomillashtirish, chora-tadbir,

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Biznesning qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi. Farmon matniga ko'ra, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko'mak berish, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni

ta'minlash maqsadida bir necha sohalarda amalga oshiriladigan vazifalar sanab o'tilgan. Jumladan:

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida - tadbirkorlik sub'yektlarini, ayniqsa, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davrida ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofazasining kafolatlarini kuchaytirish, jadal rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berish, xususiy mulk va tadbirkorlikning ustuvorlik roli va daxlsizligini ta'minlash, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, jumladan:

- vakolatli organlar tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi holatini tahlil qilish hamda uning natijalarini tizimli asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga taqdim etish;

- tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligining, avvalo, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishning amaliy mexanizmini joriy etish hamda ularning faoliyati bo'yicha mustaqil baholashni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlariga nisbatan shikoyat arizalari bergan tadbirkorlik sub'yektlarining manfaatlarini himoya qilish;

- tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati monitoringini amalga oshirish hamda ular faoliyati tekshiruvlarida Palata a'zolarining ishtirok etishini ta'minlash kabi bir qator chora- tadbirlar ishlab chiqildi.

Tadbirkorning o'z faoliyati sohasida olib boradigan ishlari ko'p qirralidir. Bu bozor siyosatining o'zgarishi bilan yoki korxonaning ichki va tashqi omillari ta'sirida aniqlanadi. Lekin tadbirkorning asosiy maqsadi manfaat (foйда) ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir. Buning uchun tadbirkorlikni boshqarish va unga ko'mak beruvchi zamonaviy menejment usullariga asoslangan mexanizmni yaratish va undan unumli foydalanishni ta'minlash zarurdir. Bozor sharoitida tadbirkorlikni boshqarishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish kerak:

- tadbirkor har doim bozordagi talab va taklifni e'tiborga olib ish ko'radi;

- tadbirkor samaradorlikni ta'minlovchi sa'y-harakatlar qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini qidiradi;

- biznesning pirovard natijalariga javob beradigan shaxslar, oz biznesini erkin shart-sharoitlarda olib borishlariga etarli imkoniyatlar yaratishadi;

- kichik korxonaning pirovard natijalari, ya`ni uning oladigan foyda yoki zarari faqat bozordagi oldi-sotdi jarayonida ma`lum bo`ladi;
- kichik biznes bilan shug`ullanuvchi tadbirkor o`z mablag`larini harakatga solib, bozorda qanday xavf-xatarga duch kelishi yoki yakuniy natija qanday bo`lishini aniq bilmaydi.

Tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo`lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g`oyasiga asoslangan, foyda olishga yo`naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi bo`lib, uning boshlang`ich bosqichi, odatda, fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan bog`langan bo`ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi.

Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o`zgartirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta`riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimda ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tadbiriq etishda o`z ifodasini topadi.

Tadbirkorning asosiy maqsadi – o`z iste`molchilariga ega bo`lish yo`lida tovarga bo`lgan ehtiyojni aniqlashdan iboratdir. Tadbirkor o`z iste`molchilarini shakllantirishda quyidagi asosiy omillarni hisobga olishi kerak:

- tovarning yangiligi va uning haridor manfaatiga mos kelishi;
- tovar yoki xizmatlarning sifati;
- tovar yoki xizmatlarning narxi;
- tovarning universallik darajasi;
- tovarning tashqi ko`rinishi, uning haridor talablariga mosligi;
- sotuvdan keyingi servis xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;
- tovarning qabul qilingan umumiy yoki davlat standartlariga mosligi;
- tovar va xizmatlar reklamasining jozibaliligi, xaridor diqqatini o`ziga jalb qilishi va hokazo.

Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va ishga doir sifatlari tadbirkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo`ladi. Tadbirkorning ishga doir sifatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- birinchidan, bozorning tovarlar va xizmatlar bilan ta`minlanish darajasini tahlil qilish yo`li bilan iqtisodiy xo`jalik tizimida o`z o`rnini topish;
- ikkinchidan, shaxsiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishga tayyorlik qobiliyati;
- uchinchidan, marketing tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqqan holda, dastlabki tadbirkorlik hisob-kitoblarini amalga oshirish;

- to'rtinchidan, tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishda rahbarlikni to'g'ri yo'lga quyish qobiliyati;
- beshinchidan, yangi texnik, texnologik g'oyani birinchi bo'lib hayotga tadbiq etish hamda ushbu g'oyadan amalda foydalanish, undan qanday yakuniy natija, mahsulot yoki xizmatlar olish mumkinligini tasavvur qila olish.

Kichik biznesning roli rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni hal qiluvchi klassik vazifalar bilan belgilanadi. Bu iqtisodiyotning sog'lom raqobat muhitini rivojlantirib, aholining bilim, energiya ko'nikmalari va mehnatsevarligidan yanada to'liq foydalanish uchun kuchli motivatsion rag'batlantirish tizimini yaratadi, bu esa o'z navbatida mavjud moddiy, kadrlar, tashkiliy va texnologik resurslarni yanada faol ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkonini beradi; maishiy, tashkiliy va ishlab chiqarish xizmatlarining sifatli tizimini shakllantirish; ko'p sonli yangi ish o'rinlarini yaratish, jamiyatning eng muhim qatlamini shakllantirish, iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini rivojlantirish, tashkilot, ishlab chiqarish, sotish va moliyalashtirishning yangi shakllarini joriy etish.

Kichik biznesning rivojlanishi jadal iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, mahalliy bozorlarni to'ldirishga yordam beradi, shu bilan birga bozor iqtisodiyotining (ishsizlik, inqiroz) xarajatlarini qoplashga imkon beradi.

Tadbirkorlikning ahamiyati shundaki, kichik korxonalar omon qolish uchun qattiq raqobatlashib, bozorning hozirgi sharoitlariga doimo rivojlanib, moslashishga majbur bo'lishadi, chunki mavjud bo'lish uchun yashash uchun mablag' olish kerak, ya'ni boshqalardan ko'ra yaxshiroq bo'lish, yaxshiroq foyda olish uchun harakat qilishadi.

Xususiyl tadbirkorlik ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tuzilishi va sifatini belgilovchi yetakchi tarmoqlardan biridir. Kichik biznesning rivojlanishi moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish, mulkning turli shakllarini birlashtirish va raqobatbardosh bozor mexanizmining murakkab sintezini va yirik, o'rta va kichik ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiradigan iqtisodiyotning yetarli modelini shakllantirish uchun global tendentsiyalarga javob beradi. O'zbekiston Respublikasida xususiyl mulk daxlsizligini himoya qilish, uning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini mustahkamlash, ishbilarmonlik muhiti va biznes sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bundan Asosiy maqsad – qo'shimcha ish o'rinlari yaratayotgan, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan va rivojlanishga salmoqli hissa qo'shayotgan

tadbirkorlar uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqoti chog'ida ham so'z yuritildi. Uchrashuvda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, tizimli muammolarni bartaraf etish, ularning fikr va takliflarini eshitish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokama qilindi.

Shubhasiz, keyingi yillarda tadbirkorlar iqtisodiyot va islohotlarning haqiqiy tayanchi va lokomotiviga aylandi. Shubhasiz, tadbirkor vatandoshlarimiz yangi O'zbekistonning ijodkorlari, deb aytish mumkin. O'z navbatida, davlat ular uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, tadbirkor ayollar va yosh ishbilarmonlar safini yanada kengaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham iqtisodiy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ladi. Shunday qilib, O'zbekistonning kuchli va rivojlangan davlatlardan biri bo'lishga intilishi va sa'y-harakatlari tez orada meva bera boshlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Хатамов О., Тошалиева С. Сурхондарё вилояти кичик тадбиркорлик салоҳияти натижавийлигини ижтимоий-иқтисодий баҳолаш усуллари ва мезонлари //Иқтисодиёт ва таълим. – 2021. – №. 4. – Б. 215-224. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/159>

2. Тошалиева, С. Худудий кичик тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиш истиқболларини прогнозлаш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2022. – №. 3 (23). – Б. 220-227. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33; <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/530>

3. Toshaliyeva S.T. Economic and statistical analysis of the development of small business potential in Surkhandarya region //Экономика и предпринимательство. – 2021. – №. 4. – С. 778-782.

4. Toshaliyeva S.T. The concept of «business potential»: essence, economic significance //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – P. 39-42.

5. Тошалиева С.Т. Кичик тадбиркорлик ишлаб чиқариш хажмини баҳолашда динамик эконометрик моделлардан фойдаланиш // “Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг статистик таҳлилини такомиллаштиришнинг назарий ва услубий жиҳатлари” Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2022 йил 27 май). -2022. – Б. 307-311. https://instat.uz/2022/kon_%2027.06.2022.pdf.

6. Тошалиева С.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш // Biznes-Эксперт. - 2019. - №. 11 (143). - Б. 76-78. https://www.researchgate.net/profile/Diloram-Mirxamidova/publication/340461330_2_5294208694592997094/links/5e8b4d59299bf1307983c4e6/2-5294208694592997094.pdf